

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Jild 3, Son 7/S
2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шохида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Холлиев Азизбек Гўзалович</i> РОССИЯ-АМЕРИКА САВДО АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИДАН (XVIII АСР ЎРТАЛАРИ – XIX АСР БИРИНЧИ ЯРМИ)	7-13
<i>Юлдашев Сайданварбек Баҳромжон ўғли</i> ФАРГОНА СОМОНИЙЛАРИ ТАРИХИДАН ЛАВҲАЛАР	14-25
<i>Бобоҷонов Шавкат Улуғбековиҷ</i> ФЕНОМЕН БАҲАУДДИНА НАҚШБАНДИ В ПАЛОМНИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ НАСЕЛЕНИЯ БУХАРСКОГО ОАЗИСА	26-31
<i>Raxmonqulova Masuma Mengniqulovna</i> ZARDUSHTIYLIK DINIGA OID YOZMA MANBALARNING ARXEOLOGIK MANBALARDA AKS ETISHI	32-39
<i>Isarov Umidulla Isar o'g'li</i> “ILK KO'CHMANCHILAR” ATAMASI MUAMMOSI	40-45
<i>Исламов Шарифжон Ганиджанович</i> “КЕНГАШ” ЖУРНАЛИДА СИЁСИЙ, ДИНИЙ ВА ИЖТИМОИЙ МУАММОЛАРНИНГ ЁРИТИЛИШИ	46-54
<i>Фарманова Гулнара Комилевна</i> АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ РАБОТЫ И ИССЛЕДОВАНИЯ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ ХХ ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ РАБОТ Г.В.ГРИГОРЬЕВА И А.И.ТЕРЕНОЖИНОЯТ КОДЕКСИИНА)	55-64

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i> QURILISH KORXONALARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI TAN OLISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	65-71
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i> ONLAYN MOLIYAVIY XIZMATLARNING XUSUSIYATLARI	72-79
<i>Пардаев Мамаюнус Қаршибаевич, Бабаназарова Севара Абдиназаровна</i> ИНСОН КАПИТАЛИ ТУШУНЧАСИННИГ МАЗМУНИ, ТАРКИБИ ВА УНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧНИ АНИҚЛАШ ЙЎЛЛАРИ	80-90
<i>Norkochkarov Abdulaziz Ziyadullaevich</i> PRACTICAL ASPECTS OF CREATING COST ESTIMATE IN BUDGET ORGANIZATIONS	91-98
<i>Темиров Шоҳруҳжон Пўлатхўжа ўғли</i> КИЧИК БИЗНЕС РИВОЖЛАНИШИ ОМИЛЛАРИ, ДАРАЖАЛАРИ ВА БАРҚАРОРЛИГИДА ИННОВАЦИОН БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИ (ФАРГОНА ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА).....	99-108

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Raximova Dildora Abzalovna</i> GLOBAL MUAMMOLAR FALSAFASI	109-114
---	---------

Искандаров Жаҳонғир Шарипович
ИНТУИЦИЯ ВА УНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИНЛАРИ 115-121

Xadjamuratova Matlyuba Xashimovna
YOSHLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHNING INNOVATSION XUSUSIYATLARI 122-128

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Axmedov Oybek Saparbaevich
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ
ХОДИСАСИНИНГ ЎРНИ 129-137

Rasulova Gulbahor
AYRIS MYORDOK IJODIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR 138-143

Norqobilov Sanjar Rahmat o'g'li
КОГНИТИВ ЛИНГВИСТИКА ФАНИНИ ТАQQOSLASHNING UMUMIY TENDENSIYALARI 144-149

*Bobojonov Dilshod Jumaqul ugли, Halilova Shohista Muhammadi qizi, Umarova Maftunbonu
Umidjanovna, Turdaliyeva Shahnoza O'ktamovna, Gulnora Xolmurodova Sattorovna*
LINGUISTIC FEATURES OF THE MODERN NEWSPAPER LANGUAGE: ANALYSIS AND
RESEARCH 150-159

*Sodikova Bakhtigul Ibodullaevna, Berdiyev Suhrob Sobirovich, Togaev Bobur Erkin ugли, Hafizov
Sarvar Boborajab ugли, Maxsumov Rustam Maxamadiyevich*
CHARACTERISTICS OF THE NEO-VICTORIAN NOVEL IN THE "FRENCH LIEUTENANT'S
WOMAN" BY JOHN FOWLES 160-166

Xolmuxamedov Baxtiyor Farxodovich
О'zbek tilida yaratilgan chappa (ters) lug'atlari haqida 167-176

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

Tўраев Сардор Абдихаким ўғли
БАЪЗИ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ИНТЕРНЕТ ТАРМОГИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР
ЭТИЛАДИГАН ТАЛОН-ТОРОЖ ЖИНОЯТЛАРИ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК
МАСАЛАЛАРИ 177-187

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna
MATNNING GERMENEVTIK KONTSEPTSIYASI VA KOGNITIV GERMENEVTIKA 188-192

Xaydarov Azamjon Asqarovich
“OZIQ OVQAT TEXNOLOGIYASI YO’NALISHI” TALABALARINI UMUMIY KIMYO KURSINI O’QITILISHDA
INTEGRATIV TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY METODIK ASOSLARI 193-198

Allamurodova Sabohat Ibodullayevna
ADABIY TA'LIM TIZIMIDA KULTUROLOGIK YONDASHUV 199-204

Gaynullaeva Yulduz Anvarovna
PROFESSIONAL AND AESTHETIC APPROACH TO TYPES OF WOMEN'S CLOTHING 205-210

07.00.00-Тарих фанлари

Isarov Umidulla Isar o'g'li
Termiz davlat universiteti, tayanch doktorant
E-mail: mr.isarov@mail.ru

"ILK KO'CHMANCHILAR" ATAMASI MUAMMOSI

Annotatsiya. Ushbu maqolada "ilk ko'chmanchilar" tushunchasi va uning ijmoiy va iqtisodiy aspektlari ko'rib chiqilgan. Maqolada ko'chmanchilikka o'tishning sabablari va shu davrdagi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlari, "ilk ko'chmanchilar"ning kim bo'lganligini, qanday omillar natijasida ko'chmanchilikka o'tilganligi va bu jarayonlarning ilmiy adabiyotlardagi tahlili bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Ilk ko'chmanchilar, ko'chmanchi chorvachilik, ko'chmanchilikning paydo bo'lishi, ko'chmanchilik sabablari, bronza va ilk temir davri, itimoiy iqtisodiy mehnat taqsimoti, madaniy ta'sir, arxeologik ma'lumotlar, terminologik nuqtai nazar.

Isarov Umidulla Isar ugli
Termez State University, PhD student

THE PROBLEM OF THE TERM “EARLY NOMADS”.

Abstract. This article examines the concept of “early nomads” and its social and economic aspects. The article describes the causes of nomadism and changes in the economic, political and cultural life of society during this period, who the “early nomads” were, the factors of nomadism and the analysis of these processes in the scientific literature.

Key words: early nomads, nomadic-pastoralism, the emergence of nomadism, causes of nomadism, Bronze and Early Iron Age, socio-economic division of labor, cultural influence, archaeological data, terminological point of view.

Исаров Умидулла Исаар угли
Термезский государственный университет, аспирант

ПРОБЛЕМА ТЕРМИНА «РАННИЕ КОЧЕВНИКИ».

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие «ранние кочевники» и его социальные и экономические аспекты. В статье описаны причины кочевничества и изменения в экономической, политической и культурной жизни общества в этот период, кто были «ранние кочевники», факторы кочевничества и анализ этих процессов в научной литературе.

Ключевые слова: ранние кочевники, кочевые-скотоводство, возникновение кочевничества, причины кочевничества, бронзовый и ранний железный век, социально-экономическое разделение труда, культурное влияние, археологические данные, терминологическая точка зрения.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I7/SY2023N05>

Kirish. Odatda ko'chmanchi turmush tarzini olib boradigan urug' va qabila rishtalari asosida shakllangan ijtimoiy guruhlarning turmush tarzi ko'chmanchilik deb ataladi [1]. Mavsumiy ko'chish yoki geografik sharoitga moslashishga intilish ko'p jihatdan tirikchilik manbai bo'lgan chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan. Xalqlar hayotida dehqonchilikka asoslangan hayotga o'tishdan oldin chorvachilik bilan shug'ullaniladi va buning tabiiy natijasi o'laroq hayvonlarni parvarish qilish va oziqlantirish kerakligi tufayli ko'chmanchilar tabiiy hayotga moslashishga majbur bo'lgan.

"Ilk ko'chmanchilar" atamasini ilk bor ilmiy muomalaga M.P.Gryaznov 1939-yilda kiritgan va bu atama asosan Janubiy Sibir, Oltoy va Qozog'iston hududlariga nisbatan qo'llanilgan [2]. Bunda xo'jaligining asosini ko'chmanchi chorvachilik tashkil etgan qabila va etnoslarning va ularning moddiy madaniyat yodgorliklarining rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Xususan, M.P.Gryaznov ilk ko'chmanchilar davrini miloddan avvalgi VIII asrdan milodiy I asrlarigacha bo'lgan davr bilan belgilagan. Albatta tadqiqotchi bunda o'z davridagi mavjud ilmiy materiallarga asoslanib shunday xulosaga kelgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. "Ilk ko'chmanchilar" atamasi yozma manbalarda (xitoy, antik va fors) qayd etilgan hududlarda bu davrlarni yetarli darajada tavsiflovchi umumiy nom yo'qligi sababli qo'llaniladi. Boshqa dasht mintaqalarida esa mazkur tarixiy davrlar o'zining aniq nomlariga ega. Masalan, Qora dengiz mintaqasida skiflar, keyinroq sarmatlar davri, Janubiy Qozog'iston va Qirg'izistonda sak-massagetlar, keyinchalik usunlar davri, Baykal mintaqasi va O'rta Osiyoda Xunnnlar davri degan terminlar uchraydi.

Ushbu ta'riflardan "skiflar davri" atamasi dastlab antik davr mualliflari asarlarida uchraydi va hali ham keng qo'llanilmoxda. Bu ko'pincha miloddan avvalgi 1-mingyillikdag'i barcha ko'chmanchilar madaniyatlariga nisbatan ishlatiladi. Yunon va Rim tarixchilariga bunday taqlid qilish sababli ba'zi tadqiqotchilar skiflarni asosan Janubiy Sibir va Oltoy hududigagina bog'liq deb hisoblashdi va bu orqali mazkur davr xususiyatlarini buzib ko'rsatadi [3,4].

"Skiflar davri" ta'rifining asosiy kamchiligi ulkan hududda tarqalganligiga qaramay, asosiy e'tibor eng yaxshi o'rganilgan Qoradengizbo'yи skiflari etnik shakllanishning xususiyatlariga qaratiladi [5]. Shuning uchun boshqa etnik guruhlarning tarixiy rivojlanishidagi mahalliy farqlar e'tibordan chetda qolib ketadi va bu davrga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarining butunligiga putur etadi.

Shu sababli, Yevrosiyo dashtlari hududlarida bu davr uchun xo'jalik asosini asosan ko'chmanchi chorvadorlik tashkil etgan dastlabki jaomoalar rivojlanishining o'ziga xususiyatlarini o'zida to'laqonliroq aks ettiruvchi umumiy atama -"ilk ko'chmanchilar" atamasini qo'llash to'g'riroq bo'ladi [6].

Mazkur maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida zamonaviy fan rivojlanishining qonuniy tendensiyasi bo'lmish fanlararo yondashuv usulidan foydalanilgan. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Muhokama. Ma'lumki, "Qadimgi Sharq" atamasi ilk quldorlik davlatlarining tarixini birlashtirib, xo'jaligi irrigatsiya tizimiga asoslangan Misr, Mesopotamiya, Eron kabi hududlarning tarixiy taraqqiyoti va madaniyatining o'ziga xosligini o'z ichiga oladi. Shuningdek, "ilk ko'chmanchilar" atamasi ham xo'jaligi asosi ko'chmanchi chorvadorlik tashkil etgan ilk

jamoalar bo'lgan skiflar, saklar, massagetlar va boshqalar qabila va etnoslarning xarakterli xususiyatlarini qamrab oladi.

Ko'chmanchilar tarixining davrlanishi muammosi bo'yicha zamonaviy adabiyotda uchta nuqtai nazar mavjud.

Ulardan birinchisi S.I.Vaynshteyn, M.I.Artamonov, M.P.Gryaznov kabi olimlarga tegishli bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, ular ko'chmanchilik tarixini ikki davrga — "ilk" ko'chmanchilar va "so'nggi" ko'chmanchilarga bo'lishadi. Ushbu davrlashtirish nafaqat ijtimoiy rivojlanish darajasidagi farqlarga, balki birinchi navbatda "ilk" va "so'nggi" ko'chmanchilar o'rta asrlar bo'lgan iqtisodiy va madaniy farqlarga asoslanadi [2,7,8].

Ikkinci nuqtai nazar shundan iboratki, Yevroosiyo cho'llarida ko'chmanchi jamiyatlarning rivojlanishi ibridoiy jamoa tuzumidan to ilk feudal davrgacha va rivojlangan feudal munosabatlari gacha bo'lgan uzuksiz progressiv jarayon sifatida belgilashadi. Shu bilan birga, "ilk ko'chmanchilar" jamiyatları — miloddan avvalgi 1-ming yillikkacha, aniqrog'i davlatchilikkacha bo'lgan jamiyatlar deb hisoblab, davlat va sinfiy jamiyatning yaratilishi faqat o'rta asrlar ko'chmanchilariga tegishli ekanligini e'tirof etishmoqda [9,10].

Va nihoyat, ko'chmanchilar tarixini davrlashtirish bo'yicha uchinchi nuqtai nazarga ko'ra, tadqiqotchilar ko'chmanchilar tarixi umumiylar tarixiy jarayonning ajralmas qismi sifatida jahon tarixining umumiylar davriylashuviga mos ravishda uch davrga – "qadimgi ko'chmanchilar davri", "o'rta asr ko'chmanchilar davri" va "zamonaviy ko'chmanchilar davri"ga bo'lish maqsadga muvofiq deb hisoblashadi [11].

Shuningdek, avvalo ko'chmanchilarning tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini qisqacha shakllantirish, so'ngra Yevrosiyoning ulkan hududlarida ko'chmanchi chorvachilikning paydo bo'lishi va shakllanishi davri sifatida ilk ko'chmanchilar davring o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash lozim.

Avvalo, mazkur atamasini asoslash uchun ko'chmanchilar qayerda paydo bo'lganligi, ushbu iqtisodiy tizimning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun qanday geografik sharoitlar qulay ekanligini aniqlab olish lozim.

Shu munosabat bilan ko'chmanchilikning quyidagi asosiy belgilarini e'tirof etish lozim:

1. aholining asosiy xo'jalik turi chorvachilik tashkil etishi;
2. chorva mollarini ekstensiv, ya'ni yil davomida yaylovda boqish bilan bog'liqligi;
3. aholining ma'lum bir yaylov hududida davriy-mavsumiy harakatchanligi;
4. aholining asosiy qismining ko'chish davrida ishtirok etishi;
5. xo'jalikda natura shakllarining ustunligi.

Chorvachilikning mustaqil xo'jalik tarmog'i sifatida shakllanishi va ko'chmanchilikning paydo bo'lishi muammosi tarix fani uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu masalada ilmiy adabiyotlarda ko'chmanchilikning kelib chiqishiga oid bir qancha qarashlarni taqdim qilish maqsadga muvofiq:

1. Ba'zi tadqiqotchilar ko'chmanchilikni ijtimoiy-iqtisodiy mehnat taqsimoti asosida ovchilikdan kelib chiqqan va dehqonchilikdan oldin paydo bo'lgan deb hisoblashadi. Bu nuqtai nazar uzoq vaqtadan beri mavjud edi, ammo yangi ma'lumotlarning to'planishi bilan olimlar boshqa farazlarni ilgari sura boshladilar.

2. Ikkinci nuqtai nazar 20-asrning ikkinchi yarmida olimlar orasida juda keng tarqalgan bo'lib, ko'chmanchilikka o'tish podalar sonining ko'payishi va ularni ozuqa bilan ta'minlash muammosining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lganligini e'tirof etishgan. Ularning fikriga ko'ra,

chorvaga ozuqa izlab, bir yaylovdan ikkinchi yaylovga ko'chish asosida ko'chmanchilik shakllangan [2,12].

3. Tadqiqotchi olim S.I.Rudenko fikriga ko'ra, ko'chmanchilik o'troq jamoalar o'rtasida shakllanib, o'rtoq dehqonlar chorvani alohida mulk shakli sifatida ko'rib, ularni qurol-yarog' va boshqa qimmatli buyumlarga almashtira boshlaydi [13]. Shu vajdan o'z suruvlarini ko'paytira boshladi va ko'chmanchilikka o'tgan.

4. Tarixchi olimlar G.E.Markov, Gumilyov esa ko'chmanchilikning paydo bo'lishining muhim omili sifatida mehnat taqsimoti, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, ayirboshlash bilan bir qatorda tabiiy muhit, landshaftlar va dashtlarning o'simlik qoplamining o'zgarishi bilan bog'liqligini e'tirof etgan [14,15]. Bularning barchasi birgalikda chorvachilik xo'jaligi shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi va ko'chmanchilarning paydo bo'lishiga olib kelgan, chunki o'troq aholi endi o'z xo'jaligi va ishlab chiqarish munosabatlarini bir xil darajada ushlab tura olmas edi.

O'rta Osiyo ilk ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan madaniyat sohiblari yashagan hududlar shimoldan o'rmon-dasht chizig'i, g'arbda Tyanshan tog'lari va Gobi sahrosi, sharqda Kaspiy dengizi va Volga daryosi va janubiy chegarasi O'rta Osiyoning janubidagi sug'orma dehqonchilik hududlari bilan chegaralangan.

Dasht va tog' oldi daryolari tekisliklaridagi nisbatan kichik maydonlardagina ishlov berish mumkin edi. Tabiiyki, ibridoiy jamiyat sharoitidagi dehqonchilik bu yerda mavjud bo'lish uchun yagona asos bo'la olmasdi. Cho'l yaylovlari tog' yaylovlari bilan qo'shilib, yil davomida yirik chorva mollarini boqish imkonini berdi. Albatta dehqonchilik hududlaridan farqli o'laroq, bu yaylovlar katta maydonga tarqalgan.

Shunday qilib, dasht zonasining o'ziga xos fizik-geografik sharoiti bu yerda yashovchi qabilalarning xo'jaligi va rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi va ko'chmanchi chorvachilik shakllandi. Boshqa tabiiy sharoitlarda chorvachilikning o'ziga xos shakllari vujudga keldi va rivojlandi. Xususan, tog'li hududlarda yozda alp o'tloqlariga va qishda vodiylarga ko'chiradigan chorvachilik, janubiy hududlarda – keng yaylovlar cheklangan. Shuningdek, ko'chmanchi chorvachilikni nafaqat Yevroosiyoning cho'l-dasht zonasida, balki Yaqin Sharq, Janubiy va Shimoliy Afrikaning ayrim hududlarida, Shimoliy Hindiston va nihoyat, Shimoliy Osiyoda (kiyik boqish asosida) xo'jalikning hukmron shakli sifatida o'ziga xos tarixiy va o'ziga xos xususiyatlarga ega xo'jalik sifatida shakllanganligini ko'rishimiz mumkin [15].

Ko'chmanchilar dunyosi tarixiy rivojlanishining o'ziga xosligini ko'rib chiqayotganda shuni hisobga olish kerakki, ta'bir joiz bo'lsa, "sof" ko'chmanchi chorvadorlar hech qachon mavjud bo'lmanan va biz faqat ustun, ammo yagona emas, balki iqtisodiyotning yagona tarmog'i haqida gapirishimiz mumkin. faoliyat. Ko'chmanchilarning o'zlari va yaqin atrofda va ular orasida yashovchi o'troq aholi u yoki bu darajada dehqonchilik bilan shug'ullangan, bu esa dasht hududlari bilan bog'liq bo'lgan ba'zi tarixiy voqealarni tushunishni juda qiyinlashtiradi.

Ko'chmanchilar dunyosi tarixiy rivojlanishining o'ziga xosligini hisobga olgan holda shuni hisobga olish kerakki, ta'bir joiz bo'lsa, "sof" chorvador ko'chmanchilar hech qachon mavjud bo'lmanan va biz faqat xo'jalik faoliyatining ustun, ammo yagona tarmog'i haqida gapirishimiz mumkin. Qaysidir ma'noda ko'chmanchilarning o'zlari va yaqin atrofda yashovchi o'troq aholi va ular orasida dehqonchilik bilan shug'ullangan, bu esa dasht hududlari bilan bog'liq bo'lgan ba'zi tarixiy voqealarni tushunishni juda qiyinlashtiradi.

Ammo bu ko'chmanchilar tarixini qishloq xo'jaligi mamlakatlari tarixidan bir qator muhim belgilari bilan ajralib turadigan alohida hodisa sifatida ko'rib chiqish imkoniyati va zaruriyatini yo'q qilmaydi. Ko'chmanchi jamiyatga xos bo'lgan bu o'ziga xoslik nimada? Tarixiy faktlar quyidagilardan dalolat beradi:

1. Quldarlik juda uzoq vaqt davomida mavjud bo'lgan bo'lsa-da ko'chmanchilarda quldarlik klassik ko'rinishda bo'lmasan. Quldarlik uy quldarligi, qul-hunarmand ko'rinishidagi mavjud bo'lgan.

2. Sinflarning shakllanishi, hukmoni sinfning mustahkamlanishi va davlatning shakllanishi jarayonlari nihoyatda sekin kechib, ibtidoiy shaklga ega bo'lgan "harbiy demokratiya" bosqichida uzoq vaqt davom etadi. Ko'chmanchilarning ijtimoiy tuzilmalari patriarxal-feodal munosabatlar darajasidan yuqoriga ko'tarilmaydi. Ibtidoiy jamoa tuzumining kuchli qoldiqlari ko'chmanchi jamiyatlarning keyingi barcha rivojlanishini tavsiflaydi. Feodal ekspluatatsiyasi esa urug'-qabila an'analariga asoslanadi.

3. Sinfiy iyerarxik boshqaruv shakllari hatto eng rivojlangan shaklda ham, o'troq dehqonchilik jamiyatidagi kabi rivoj topmagan. Ko'pincha ko'chmanchilar davlat tuzilmalarining barchasi zaif va qisqa muddathli bo'lgan.

4. Ko'chmanchi chorvadorlarda etnogenez jarayonlari murakkab va uni tahlil qilish har bir tadqiqotchiga qiyinchilik tug'diradi. Masalan, qabilalar va elatlarning doimiy ko'chishlari natijasida ularning nomlari tez-tez o'zgarib turadi. Shuningdek, yirik qabila uyushmalarining millat sifatida shakllanish jarayoni tez-tez uzilib qoladi. (avarlar, qipchoqlar, xazarlar, jungarlar).

5. Ko'chmanchilarning butun tarixi davomida o'zaro va qo'shni hududdagi o'troq dehqonchilik madaniyati sohiblari bilan doimiy harbiy to'qnashuvlar kuzatiladi.

6. Ko'chmanchilarning harakati asosan sharqdan g'arbga (skiflar, sarmatlar, xunlar, bolgarlar, avarlar, pecheneglar), janubga (kimmerlar, skiflar, saklar), sharqqa (xunlar, turklar) yo'nalgan bo'lsa, shimolga juda kam va kichik miqyosda yurishlar amalga oshirilgan.

7. Ko'chmanchilarning uyushmalarini asosan harbiy xususiyatga ega. Ko'chmanchilar uyushqoqligi va qo'shining yaxshi tashkil etiliishi, katta otliq qo'shining yuqori harakatchanligi bilan ajralib turadi. Ko'chmanchilarning bosqinlari aholini yo'q qilish va talontaroj qilish, chorva mollarini o'zlashtirish, shaharlarni va umuman, ko'chmanchilar o'zlarini bilan olib keta olmaydigan barcha narsalarni vayron qilish bo'lgan.

Xulosa.Mazkur faktlar ko'chmanchi qabilalar va elatlarning tarixiy taraqqiyotning umumiyligi qonuniyatlariga bo'ysunib, o'troq hudud aholisidan ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Shunday bo'lsada, bu masala batafsil kengroq o'rganishni talab qiladi.

Bronza davrining dasht qabilalari o'rtasida ko'chmanchi chorvachilikka o'tishi nafaqat ularning xo'jalik faoliyatida, balki moddiy madaniyatida, turmush tarzida, dunyoqarashida, ijtimoiy tuzilishida katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligi shubhasiz, o'troq dehqonchilik xo'jaligiga nisbatan haddan tashqari ko'p miqdorda ortiqcha mahsulot berdi va dashtning ulkan hududlari o'zlashtirildi. Uzoq masofali migratsiyalar madaniy aloqalarning tez almashinuviga yordam berish bilan birga chorva mahsulotlari va metall mahsulotlarining keng miqyosda tarqalishiga asos bo'ldi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Чебоксаров Н. Н., Чебоксарова И. А.. Народы, расы, культуры. М.: Наука, 1971.
2. Грязнов М. П. Ранние кочевники Западной Сибири и Казахстана //История СССР с древнейших времен до образования древнерусского государства (макет издания АН СССР). М. – 1939. – С. 399-413.
3. G. Borovka. Scythian Art. Лондон, 1928; С.И. и Н.М.
4. Руденко. Искусство алтайских скотов. М., 1949.
5. Гасанов З. Царские скоты. Нью-Йорк. 2002.
6. Umidulla Isar ugli Isarov, . "Reviews About Early Nomads In Central Asia". The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, vol. 2, no. 09, Sept. 2020, pp. 18-26
7. Вайнштейн С. И. Проблемы истории жилища степных кочевников Евразии //Советская этнография. – 1976. – №. 4. – С. 42-62.;
8. Артамонов М. И. Киммерийцы и скоты. – Рипол Классик, 1974.
9. Лашук Л. П. Социальная организация средневековых кочевников//Советская этнография. – 1967. – №. 4. – С. 25-39.
10. Златкин И. Я. Концепция истории кочевых народов А. Тойнби и историческая действительность //Современная историография стран зарубежного Востока. М.: Наука. 1971. С. 112. – 1971. – Т. 126.
11. Хазанов А. М. Кочевники и внешний мир. – Филологический факультет Санкт-Петербургского государственного университета, 2008.
12. Черников С. С. Некоторые закономерности исторического развития ранних кочевников (по археологическим материалам Западного Алтая) //Центральная Азия в кушанскую эпоху: Труды междунар. конф. по истории, археологии и культуре Центральной Азии в кушанскую эпоху (Душанбе, 27 сентября-6 октября. – 1968. – С. 3.
13. Руденко С. И. К вопросу о формах скотоводческого хозяйства и о кочевниках //Материалы по этнографии. – 1961. – Т. 1.
14. Гумилев Л. Люди и природа Великой степи. – Litres, 2021.
15. Марков Г. Е. Кочевники Азии: Структура хозяйства и общественной организации. – 1976.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

N^o S/7(3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).